



INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL ONLINE CONFERENCE

TEACHING FOREIGN LANGUAGES

TSUL ICON FLT



TASHKENT 2021



THE MINISTRY OF JUSTICE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

An international scientific and practical online conference on the topic
**TSUL INTERNATIONAL CONFERENCE ON
TEACHING FOREIGN LANGUAGES
(TSUL ICON - FLT)**

Foreign languages department

Tashkent – 2021

ITALYAN TILIDA PREDLOGLAR BILAN ISHLATILADIGAN AYRIM IBORALARNING TARJIMASI XUSUSIDA.

Xudoyqulov Behzod,

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti tadqiqotchisi,

E-mail: teacher9208@gmail.com

DOI 10.5281/zenodo.4963067

Annotatsiya: Frazelogizm- ikki yoki undan ortiq soʻzdan tashkil topgan, maʼnoviy jihatdan oʻzaro bogʻliq suz birikmasi hisoblanadi. Ushbu maqolada italyan tilidagi predlogli frazeologizmlarning - iboralarning tahliliga eʼtibor qaratilgan. Maqolada berilgan nazariy maʼlumotlar misollar orqali asoslangan.

Kalit soʻzlar: *Ibora, tarjima, ekvivalent, asl tarjima.*

Yurtimizda yoshlarning xorijiy tillarni oʻrganishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Bugun yoshlarimiz ana shunday ulkan imkoniyatlardan samarali foydalanmoqdalar. Xususan, taʼlim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar natijasida koʻplab oʻgʻil-qizlarimiz muayyan mutaxassislik boʻyicha taʼlim olish bilan birga xorijiy tillarni puxta oʻrganmoqda.

Hozirgi kunda oʻzbek tilidagi iboralarni chet tillarida va aksincha chet tillardagi iboralarni rus tili orqali emas balki toʻgʻridan toʻgʻri asliyat tilidan oʻzbek tilidagi tarjimada aks ettirish alohida ahamiyatga ega. Tarjimada shakl va mazmun munosabatini bejirim talqin etish hamda tarjimaning badiiy nafosati va milliy xususiyatini yuzaga keltiruvchi barcha lisoniy-uslubiy vositalar vazifalarini ijodiy aks ettira oladigan muqobil til va nutq birliklari tanlash vazifasi qoʻyiladi. Chunonchi, muallif tomonidan foydalanilgan har bir bayon va tafsilot, har qanday soʻz va ibora asosiy gʻoyaning vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etadiki, asarning tarkibiy qismini tashkil etadigan bunday badiiy-tasviriy vositalarning toʻla-toʻkis idrok etilishi va tarjimada ijodiy qayta yaratilishigina muloqot maqsadiga erishish imkoniyatini yaratadi.

Iboralar tilshunoslikning alohida bir qismi boʻlib shakllanganiga hali koʻp vaqt boʻlmagan boʻlsa-da, uning kelib chiqish tarixi til taraqqiyotining ilk

bosqichlariga borib taqaladi. Ilmiy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, iboraviy birliklar til bilan birga paydo bo'lib, til bilan birgalikda rivojlanib kelgan. Ammo jamiyatning turli davrlarida ularning o'rni va ahamiyati turlicha baholanadi. Iboralar tuzilishi, leksik-semantik, funktsional-uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, o'ziga xos shakllanish xususiyatlariga ega bo'lgan til birligidir.

Tildagi neytral so'zlar bilan qiyoslaganimizda iboralarning ajralib turadigan jihati – bu predmet va voqealarning mohiyatini hissiy ta'sirchanlik bilan ifodalash xususiyatidir. Ba'zan iboralar tarixiy voqea hodislar bilan bog'liq tushunchalarni ham ifodalab kelganligi bilan e'tiborga molik. Hissiy ta'sirchanlikning ifodalovchilaridan biri bo'lgan iboralar hamisha tarjimashunoslik va tilshunoslikning diqqat markazida turadi, shu sababdan uslubshunoslikda iboralar va leksik uslubiy vositalar haqidagi bo'lim tarjima, tilshunoslik muammolarini o'rganishga bag'ishlangan boshqa bo'limlarni birlashtiruvchi bo'lim sifatida namoyon bo'ladi.

Iboralar lingvistik jihatdan juda chuqur o'rganilgan, buni inkor etish noto'g'ri, lekin tarjimashunoslik nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, asliyat tili matnida qo'llanilgan iborani qanday usullarda tarjima qilish, uning vazifasini tarjima tilida ham saqlab qola bilish doirasidagi ilmiy ishlar hali yetarli emas. Lekin bu sohada ishlar umuman olib borilmagan desak xatolikka yo'l qo'ygan bo'lamiz, chunki o'zbek tarjimashunosligi ustida ishlar olib brogan G'. Salomov, Q. Musayev, O. Mo'minovlar ancha muncha ishlarni amalga oshirganlar.

Har qanday barkamol tarjima ilmiy umumlashtirishga extiyoj sezgani holda, san'atkorning asliyatga aloqador barcha manbalarni to'la-to'kis ilmiy idrok etishini xamda ularga asoslangan jami omillarni o'z tilida ongli ravishda bekami-ko'st aks ettirishini nazarda tutadi [2 – 3b.].

Bir tildagi iboralarni o'zga bir tilga o'girish ularni muqobili yoki o'xshash ekvivalentlarini topish qiyin. Chunki bular darrov kishining xayoliga kela qolmaydi. Xuddi shunday misollarni quyidagi italyan tilidagi predlogli iboralar orqali ifodalashga harakat qilamiz:

“A” predlogi bilan keladigan iboralar va ularning ma’nolarini quyidagi misollarda ko’rib chiqamiz:

A caro prezzo – Qimmat narxda

A dire il vero – Rostini gapirganda

A dirla schietta – Ochiq, oydin gapirganda

A due mani - Saxiy

A nessuno e nascosto... – Hech kimga sir emas (hammaga ma’lum...)

A noi! - Boshladik! (Bizning navbat!)

A norma di legge – Qonunga muvofiq

A notte alta (tarda) – Kech tunda

A occhiate – Tashqi ko’rinishidan, tashqaridan qaraganda

A parole – So’zda, tilda aytilganda (o’g’zaki)

A passi di formica – Kichik qadamlarda (juda sekin)

A passo saldo - Dadil qadam bilan

A passo svelto – Sergak, dadil qadam bilan

A bruciapelo - 1. Juda yaqindan; 2. To’satdan, tasodifan.

A malapena - Qiyinchilik bilan.

Alla buona - 1. Oddiy, 2. Shikoyatsiz

Bundan tashqari italyan tilida “di” predlogi bilan keladigan iboralar ham ko’p qo’llaniladi. Bu kabi iboralar va ularning ma’nolarini quyidagi misollarda ko’rib chiqamiz:

Di buon passo – Tez qadamlar bilan.

Di buona lega – Yaxshi sifatda (sifatli).

Di fatto - Aslida

Di sotto il naso – Burinning ostida

Di sua resta – O’z aqli bilan, mustaqil ravishda

Di tutto il cuore – Butun yuragi bilan

Di tutto l’anima – Bor qalbi bilan

Di buon’ora - Barvaqt;

Di gran lunga – Juda, juda ko'p;

Di punto in bianco – To'satdan, tasodifan;

Rimanere di sasso o di stucco – Hayratlangan, hayratlanib.

“In” predlogi bilan keladigan iboralar va ularning ma'nolarini quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz:

Essere, trovarsi, navigare in cattive acque – Qiyin davrni/vaqtini boshidan o'tkazmoq.

In gamba = Oyoqqa turgan, o'zini eplagan.

In stato interessante = incinta – Homilador

“Per” va “con” predloglari bilan keladigan iboralar va ularning ma'nolarini quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz:

Per filo e per segno - Batafsil;

Andare, procedere con i piedi di piombo = con molta prudenza – Juda ehtiyotkorlik bilan

Stare con le mani in mano – Qo'l qovushtirmoq.

“Su” predlogi bilan keladigan iboralar va ularning ma'nolarini quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz:

Su due piedi - Darhol

Su per giù - Taxminan, chamasi

Stare sulle spine - Xavotirda

“Tra” predlogi bilan keladigan iboralar va ularning ma'nolarini quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz:

Essere, stare tra due fuochi – Ikki o't orasida bo'lmoq.

Ushbu misollardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki tarjimaning asosiy vazifasi nafaqat bir tilda ifodalangan axborotni boshqa bir til foydalanuvchisiga yetkazib berish, balki u bir xalq madaniyatni va tarixini boshqa bir xalqqa tanishtirish hamdir. Ma'lum xalqning til xususiyatlarini bizga tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi uslubiy vositalardan biri bu iboralar va ko'chma ma'noli so'zlardir. Tarjimani uslubiy vositalarni saqlagan holda amalga oshirish tili

o'rganilayotgan mamlakatning madaniyati, tarixi va turmush-tarziga aloqador ko'pchilik real fakt voqea-hodisalarni ifodalaydi va unda til va madaniyat o'rtasidagi yaqinlik yaqqol namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. Тошкент: 1985.
2. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари: Дарслик.Т.: 2005
3. Il Kovalev. Dizionario russo-italiano, italiano-russo. Zanichelli 2007.
4. <http://parliamoitaliano.altervista.org/proverbi-e-modi-di-dire-sul-cuore/>
5. <http://www.thesaurus.com/browse/proverb>